

## Qashqadaryo viloyatida kichik tadbirkorlik

### E'tibor bering!

- 2018 yilning yanvar-dekabrida kichik tadbir-korlikning YaHMdag'i ulushi 64,3 % tashkil etdi.
- 2365 mingta yangi kichik korxona va mikrofirmalar tashkil qilindi.
- 2018 yilning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik sub'yektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda) 13,3 birlikni tashkil qildi.

2018 yilning yanvar-dekabrida 2365 mingta yangi kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) tashkil qilindi, bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan 19,4 % ko'p demakdir.

Eng ko'p kichik korxona va mikrofirmalar sanoat tarmog'ida (21,1 %), savdo sohasida (20,9 %), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (19,3 %), qurilish tarmog'ida (18,2 %), yashash va ovqatlanishda (5,3 %), tashish va saqlashda (3,6 %) tashkil etilgan.



sanoat

21,1%



qishloq, o'rmon va  
baliq xo'jaligi

19,3%



savdo

20,9%



Yashash va ovqatlanish  
xizmati

5,3%



qurilish

18,2%



Tashish va  
saqlash

3,6%

**Qashqadaryo viloyatida**  
**2018 yilning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlikning**  
**asosiy ko'rsatkichlari**


	O'Ichov birligi	2017 y.	2018 y.	(+/-)
<b>Faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni</b>	<b>birlik</b>	<b>14347</b>	<b>16218</b>	<b>1871</b>
<b>Yangi tashkil etilgan kichik korhona va mikrofirmalar</b>	<b>birlik</b>	<b>1980</b>	<b>2365</b>	<b>385</b>
YaHM	%	65,1	64,3	-0,8
Sanoat	%	23,0	21,4	1,6
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	%	99,0	99,0	0,0
Investitsiya	%	11,8	11,3	-0,5
Qurilish	%	77,7	82,7	5,0
Savdo	%	85,4	85,3	-0,1
Xizmatlar	%	72,2	70,2	-2,0
Yuk tashish	%	85,6	87,9	3,2
Yuk aylanmasi	%	84,3	83,4	-0,9
Yo'lovchi tashish	%	92,9	93,6	0,7
Yo'lovchi aylanmasi	%	95,8	95,3	-0,5
Eksport	%	38,6	37,2	-1,4
Import	%	17,7	23,6	5,9

**Hududlar bo'yicha yangi tashkil topgan kichik korxona  
va mikrofirmalar**

**(birlikda)**


	<i>Yanvar-dekabr 2017 y</i>	<i>Yanvar-dekabr 2018 y</i>
Qashqadaryo viloyati	<b>1980</b>	<b>2365</b>
Qarshi sh	468	556
Shaxrisabz sh	100	127
tumanlar		
G'uzor	74	98
Dehqonobod	83	85
Qamashi	145	152
Qarshi	153	182
Koson	153	163
Kitob	137	156
Mirishkor	59	77
Muborak	76	95
Nishon	79	107
Kasbi	89	80
Chiroqchi	174	237
Shaxrisabz	75	89
Yakkabog'	115	161

## Yangi tashkil etilgan korxonalar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichga ega bo'lgan shahar va tumanlar, birlikda



2018 yilda yangi tashkil topgan kichik korxona va mikrofirmalar hududlar bo'yicha eng ko'p Qarshi shahrida - 556 ta, Chiroqchi numanida - 237 ta, Qarshi tumanida - 182 ta. Koson, Yakkabog, Kitob, Qamashi, Shahrisabz shahri, Nishon tumanlarida bu ko'rsatkich o'rta darajada bo'lib, 163-107 tani tashkiletgan. Eng past ko'rsatkichni G'uzor (95 ta), Muborak (89 ta) Shahrisabz (89 ta) Dehqonobod (85 ta) Kasbi (80 ta) Mirishkor (77 ta) tumanlari tashkil etgan.

**2018 yil yanvar-dekabr holatiga yangi tashkil topgan  
kichik korxona va mikrofirmalarning hududlar  
bo'yicha ulushi,  
foizda**



2018 yil yanvar-dekabr holatiga hududlar bo'yicha yangi tashkil topgan kichik korxona va mikrofirmalarning jami miqdoridan eng ko'p ulush Qarshi shahrida – 23,5 %, Chiroqchi numanida- 10 %, Qarshi tumanida - 7,7 %. Koson, Yakkabog, Kitob, Qamashi, Shahrisabz shahri,Nishon tumanlarida bu ko'rsatkich o'rta darajada bo'lib, 6,9-4,5 foizni tashkil etgan. Engpast ko'rsatkichni Furqat, G'uzor, Muborak, Shahrisabz ,Dehqonobod, Kasbi, Mirishkor 4,1-3,3 foiz atrofida tashkil etdi.

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil topgan  
kichik korxona va mikrofirmalar**

(birlikda)

	<b>yanvar-dekabr 2017 y.</b>	<b>yanvar-dekabr 2018 y.</b>
<b>Jami</b>	<b>1980</b>	<b>2365</b>
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	461	457
Sanoat	407	499
Qurilish	280	431
Savdo	376	494
Tashish va saqlash	89	85
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	127	125
Axborot va aloqa	45	31
Sog'likni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	55	94
Boshqa turdag'i xizmatlar	140	149

2018 yil yanvar-dekabrida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil topgan kichik korxona va mikrofirmalar eng ko'p **sanoatda** 499 ta, shuningdek :

**Savdoda** - 494 ta.;

**Qurilishda** - 431 ta.;

**Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida** - 457 ta.;

**Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar** – 125 ta


**Sog'likni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda** – 94 ta.;

**Axborot va aloqa sohasida** - 31 ta.;

**Tashish va saqlash** - 85


**Boshqa turdag'i xizmatlar** - 149 ta.

## **yangi tashkil topgan kichik korxona va mikrofirmalarning Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi (foizda)**




Yangi tashkil topgan kichik korxona va mikrofirmalarning Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi Sanoatda 21,2 foiz, Savdoda – 20,2 foiz, Qurilishda – 18,3 foiz, Qishloq,o'rmon va baliq xo'jaligida – 19,4 foiz, Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda – 5,4 foiz, Tashish va saqlashda - 3,7 foiz, Axborot va aloqada - 1,4 foiz, Sog'likni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda – 4,0 foiz va Boshqa turdag'i xizmatlarda – 6,4 foizni tashkil etdi.

**2018 yilning yanvar-dekabrida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik sub'yeqtalarining soni (har 1000 aholiga, birlikda).**




Agar, 2017 yilning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik sub'yeqtalarining soni (har 1000 aholiga, birlikda) 12,5 birlikni tashkil etgan bo'lsa, 2018 yilda bu ko'rsatkich 13,2 birlikka yetdi va 2017 yilga nisbatan 0,7 birlikka ko'paydi.

## Kichik tadbirkorlik sub'yektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda), yanvar-dekabr holatiga.




Quyida, 2018 yilning yanvar-dekabrida iqtisodiyot tarmoqlarida kichik tadbirkorlik (biznes)ning sanoatdagi ulushi 21,4 %, qurilishda - 82,7 %, investitsiyada - 11,3 %, savdoda - 85,3 %, eksportda - 37,2 %, importda - 23,6 % va xizmatlar sohasidagi - 70,2 % ulushi aniq ko'rsatilgan.


### 2018 yilning yanvar-dekabrida iqtisodiyot tarmoqlarida kichik tadbirkorlikning ulushi tuzilishi



**Qashqadaryo viloyatida kichik tadbirkorlikning  
YaHM dagi ulushining pasayishi dinamikasi  
yanvar-dekabr holatiga, %**



**Kichik tadbirkorlikning ulushi  
(umumi hajmiga nisbatan %da)**



**Qashqadaryo viloyatida 2018 yil yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlikning  
hududlar bo`yicha ulushi, (%)**

	<i>Sanoat</i>	<i>Qurilish</i>	<i>Xizmatlar</i>	<i>Investitsiya</i>
Qashqadaryo viloyati	<b>21,4</b>	<b>82,7</b>	<b>70,2</b>	<b>11,3</b>
Qarshi sh	60,0	83,3	49,7	24,0
Shaxrisabz sh	56,3	73,5	90,8	48,8
tumanlar				
G'uzor	2,5	74,5	91,0	6,5
Dehqonobod	12,0	100,0	98,5	12,3
Qamashi	63,8	100,0	98,1	52,6
Qarshi	25,5	98,4	96,9	37,9
Koson	28,6	50,7	98,1	30,7
Kitob	100,0	77,3	95,4	69,0
Mirishkor	39,6	100,0	96,5	73,1
Muborak	1,6	82,1	63,3	4,4
Nishon	5,2	63,2	98,2	0,5
Kasbi	27,6	92,9	98,1	80,7
Chiroqchi	73,3	100,0	99,7	67,8
Shaxrisabz	67,8	100,0	95,8	32,3
Yakkabog'	70,2	88,2	97,7	52,7


Hududlar bo'yicha sanoat sohasining yuqori ulushini Kitob (100,0 %), Chiroqchi (73,3 %) va Yakkabog' (70,2 %), tumanlari tashkil etadi

Qurilishda Dehqonobod (100,0 %), Qamashi (100,0 %), Mirishkor (100,0 %), Chiroqchi (100,0 %), va Shaxrisabz (100,0) tumanlari tashkil etadi.

Xizmatlar sohasida Chiroqchi (99,7 %), Dehqonobod (98,5 %), Nishon (98,2) Qamashi Koson Kasbi mos ravishda (98,1 %), tumanlari tashkil etadi.

Investitsiyada – Kasbi (80,7 %), Mirishkor (73,1 %), Kitob (69,0 %) va Chiroqchi (67,8 %) tumanlari tashkil etadi.

### **Qashqadaryo viloyatida 2018 yil yanvar-dekabrida kichik Tadbirkorlik (biznes)ning tarmoqlar bo'yicha ulushi, (%)**



## Kichik tadbirkorlik sub'yeqtlati tomonidan

2018 yil yanvar-dekabr  
holatiga



Sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi 3034,9 mlrd. so`mni (jami sanoat ishlab chiqarishining 21,4 %) yoki 2017 yilning yanvar– dekabrga nisbatan o`sish sur`ati 106,6 %ni tashkil qildi;



1725,1 mlrd. so`mlik investitsiyalar (umumiyligi investitsiyalar hajmining 11,3 %i) o`zlashtirildi va 2017 yilning yanvar–dekabriga nisbatan o`sish sur`ati 105,2 %ni tashkil qildi;



2860,2 mlrd. so`mlik qurilish ishlari (qurilish ishlari umumiyligi hajmining 82,7 %) bajarildi va 2017 yilning yanvar– dekabriga nisbatan o`sish sur`ati 110,2 % ni tashkil qildi;



4897,9 mlrd. so`mlik xizmatlar ko`rsatilib (viloyat jami xizmatlar xajmining 70,2 %), 2017 yilning yanvar–dekabrga nisbatan o`sish sur`ati 104,3 % ni tashkil qildi;



chakana tovar aylanmasi umumiyligi hajmining 85,3 % 7550,4 mlrd. so`mi (o`sish sur`ati 103,5 % ni tashkil qildi) shakllantirildi;



98,8 mln. AQSh dollari (umumiyligi eksport hajmining 37,2 %) miqdorida mahsulotlar (tovar va xizmatlar) eksport qilindi, bu esa 2017 yilga nisbatan 11,4 mln. AQSh dollariga yoki 113,0 % ga ko`p;




avtomobil transporti yuk aylanmasining 3,9 % ga (viloyat jami avtomobil transporti yuk aylanmasining 83,4 %) ko`payishi ta`minlandi;




yo`lovchi aylanmasining esa 2,9 % ga (umumiyligi yo`lovchi aylanmasining 95,3 % ) ko`payishi ta`minlandi;

## **Qashqadaryo viloyatida kichik tadbirkorlikdagi eksport (tovar,xizmat)larning, jami eksport hajmidagi ulushi, %**



2018 yil yanvar-dekabr holatiga hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlikdagi eksport (tovar,xizmat)larning jami eksportdagi eng ko'p ulushi Yakkabog', Mirishkor, Kitob, tumanlarida – 100 %, tashkil etdi.


## 2018 yil yanvar-dekabr hududlar bo`yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi va sur'ati



Hududlar bo`yicha eng ko`proq sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi Qarshi sh. (1026,9 mldr.so'm), Kitob (259,6 mldr.so'm) va Shahrisabz (212,7 mldr.so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Dehqonobod (47,8 mldr.so'm) va Mirishkor tumanlarda (64,5 mldr.so'm) ushbu sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi past bo'lib qolmoqda.




**2018 yil yanvar-dekabr holatiga jami sanoat maxsulotidagi  
kichik tadbirkorlikning hududlar bo'yicha ulushi, %**



Hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat maxsulotidagi eng yuqori ulushi (33,8%), Qarshi shaharda kuzatildi .


**2018 yil yanvar-dekabrida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik  
(biznes)da chakana tovar aylanmasi hajmi va sur'ati**



Hududlar bo'yicha ko'proq chakana tovar aylanmasi hajmi Qarshi sh. (1536,2 mlrd.so'm), Koson (790,8 mlrd.so'm), Chiroqchi (689,7 mlrd.so'm), va Qamashi (566,3 mlrd.so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.




**2018 yil yanvar-dekabrida hududlar bo`yicha kichik tadbirkorlik  
(biznes)da bajarilgan qurilish ishlari hajmi va sur'ati**




Qurilishda Dehqonobod (100,0 %), Qamashi (100,0 %), Mirishkor (100,0 %), Chiroqchi (100,0 %), va Shahrisabz (100,0) tumanlari tashkil etadi.

**2018 yil yanvar-dekabrida hududlar bo`yicha kichik tadbirkorlik  
(biznes)da xizmatlar sohasi hajmi va sur'ati**



Hududlar bo`yicha ko`proq xizmatlar hajmi Qarshi shahri (1852,3 mldr.so'm), Koson (364,4 mldr.so'm) va Shahrisabz (302,9 mldr.so'm), tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.

**Qashqadaryo viloyatida 2018 yilning yanvar-dekabrida yangi tashkil etilgan mikrofirma va kichik korxonalarining iqtisodiyot tarmoqlari bo'yicha taqsimlanishi**




Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 2018 yil IV - chorak yakunlariga ko`ra, yangi tashkil etilgan mikrofirma va kichik korxonalarda tanlanma kuzatuvlari o'tkazildi. Unda 74 dan ortiq respondentlar ishtirok etdi.

Kuzatuv ma'lumlotlari tahlili, qurilish sohasida respondentlarning 61,5 % iqtisodiy vaziyatni – qulay va 38,5 % esa qoniqarli deb hisoblashini, mos ravishda savdo sohasida – 66,7 % va 20,0 %, xizmatlar sohasida – 46,7 % va 40,0 %, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida – 37,5 % va 43,8 %, sanoatda – 53,3 % va 40,0 %ni tashkil qilganini ko`rsatdi.


Joriy iqtisodiy vaziyatga pessimistik ruhda yondashganlar sanoatda – 6,7 %, qurilishda – 0,0 %, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida – 18,7 %, xizmatlarda – 13,3 % va savdoda – 13,3 %ni tashkil qildi.

## Iqtisodiy vaziyatni baholash 2018 yil IV–chorak uchun, %



**Iqtisodiy vaziyat yaxshilanishi yaqin** uch oyda 80,0 % sanoat korxonalari, 86,7 % – savdo, 86,7 % – xizmatlar, 56,3 % – qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi va 84,6 % – qurilish tarmog`ida kutilmoqda.

## Iqtisodiy vaziyatdagi o'zgarishlar istiqbolini yaqin uch oyda baholanishi, %



Tahlil natijalaridan kelib chiqib, yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarga biznes muhitini yahshilash uchun ko'rilibayotgan chora tadbirlar natijasida respondentlar yaqin istiqbolda umumiy iqtisodiy vaziyatning yaxshilanishini ijobjiy baholayotganligini xulosa qilish mumkin.

**Ishbilarmonlik muhiti kuzatuvlari,  
tadbirkorlikni rivojlantirish  
statistikasi bo'limi**

Nashr uchun mas'ul: E.Begmurodov

Tel: (0371) 230-83-90